**Boyqoziyeva Mahliyo Gulomqodir qizi**
*Sirdaryo tumani Beshbuloq mahallasi 13-maktabda o'qituvchisi*
*"RENESANS"ta'lim unversetida 3-kurs talabasi*
*+998993986757*

## O‘ZBEKISTONIM

Kundan kunga ravnaq topar,
Mening qutlug‘ makonim.
Istiqloldan nurlar olgan
Obod O‘zbekistonim.

Dunyoni lol qoldirolgan
Bizning buyuk ajdodlar.
Avlodlarga ibrat hamon
Nomi ulug‘ ul zotlar.

Al-Buxoriy, Amir Temur,
Navoiylar barhayot.
Etajakmiz Jaloliddin,
To‘marislar ruhin shod.

Muqanna-yu Bobur bilan
Faxrlanar millatim.
Ular kabi xizmat qilmoq
Mening ezgu niyatim.

Kindik qonim tomgan maskan
O‘zbekiston - Vatanim.
Olam agar bo‘ston bo‘lsa,
Udir go‘zal chamanim.

O‘z yurtimda e'zozliman,
Mening qadrim balanddir.
Tuprog‘iga zarrasiga
Shirin jonim payvanddir.

Kelajagi buyuk bo‘lar,
Yo‘qdir aslo gumonim.
Bu olamga dovrug‘ solar
Ozod O‘zbekistonim!
O’zbekiston Respublikasi